

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Gaziyeva

Lirik matnda tagma'no va implikativ paradigma..... 232

ILMIY AXBOROT**M.T.Zokirov**

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir: nazariy yondashuvlar va O'zbekiston amaliyoti 237

A.B.Eshqurbonova

Nutqda noverbal vositalar: kommunikativ va pragmatik tahlil 241

X.A.Abdulxamidova

Isajon Sultonning "Genetik" romani xronotoplari talqini 246

G.V.Abdullayeva

Majoziy obraz yaratish mahorati..... 250

K.T.Israilova

O'zbek tilining raqamli muhitdagi sofligi: muloqot gigiyenasi qoidalari.....255

A.A.Qayumov

Kitobxon kodi: biometrik kuzatuvlar orqali tahlil.....258

Элементы оглавления не найдены.



UO'K: 82.01

MAJOZIY OBRAZ YARATISH MAHORATI**SKILL OF CREATING IMAGE****УМЕНИЕ СОЗДАТЬ ОБРАЗ****Gulnoza Voxidjonovna Abdullayeva** 

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotida, xususan, she'riyatida obraz yaratish mahorati, majoziy obraz va uning ahamiyati Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab kabi ijodkorlarning she'rlari misolida tahlil qilingan. Majoziy obrazlarda insonlarning, xususan, bolalarning xarakter-xususiyatlari yumoristik kulgi asosida ifodalanganligi, yosh kitobxonga o'rnak bo'lishi qiyosiy metod asosida yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируется мастерство образной образности и её значение в детской литературе и поэзии на примере стихотворений таких авторов, как Турсунбой Адашбо, Абдурахмон и Дильшод Раджаб. С помощью сравнительного метода выявляются особенности образной образности.

Abstract

The article analyzes the skill of creating images in children's literature, in particular poetry, figurative images and their importance using the example of poems by such creators as Tursunboy Adashbayev, Abdurakhmon Akbar, Dilshod Rajab. The fact that figurative images express the character traits of people and children based on humorous laughter and serve as an example for young readers is highlighted using the comparative method.

Kalit so'zlar. Obraz, majoziy obraz, yumoristik obraz, an'ana va novatorlik, xarakter, xalq og'zaki ijodi, badiiy mahorat.

Ключевые слова: Образ, образный образ, юмористический образ, традиция и новаторство, персонаж, народное устное творчество, художественное мастерство.

Key words. Image, figurative image, humorous image, tradition and innovation, character, folk oral art, artistic skill.

KIRISH

Obraz (ruscha obrazit - paydo qilish) - san'at va adabiyotda hayotni badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilgan narsa va hodisa, manzara, xarakter, so'z va iboralardir. Adabiyotda hayot badiiy obrazlar vositasida ifodalanadi. Obraz atamasi keng ma'noda asarda tasvirlangan narsa, hodisa, ishtirok etuvchi kishilar, badiiy tasvir vositalari kabilar bo'lsa, tor ma'noda obraz istilohi badiiy asarda tasvirlangan insonga nisbatan ishlatiladi. Bolalar adabiyotida ko'pincha hayvonlar, parranda va hasharotlar, o'simliklar obrazi ifodasi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib ushbu obrazlar majoziy mazmun kasb etadi. Masalan, an'anaviy tarzda qaldirg'och-do'stlik, chittak-chaqimchi, oqqushlar-go'zallik, bo'ri-qonxo'r, quyon-qo'rqqoq, ayiq-laqma, tulki-ayyor kabi timsollarda namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tursunboy Adashboyev an'anaviy obrazlar doirasini to'ldiradi. "Oriyatli xo'roz" she'rida xoroz majoziy obrazi maqtancholik, urishqoqlik, qaysarlik sifatida ifodalansa, "Maqtanchiq chumoli" she'rida chumoli-maqtancholik, "Turnalar" she'rida turnalar-ahillik timsoli sifatida beriladi. Bilamizki, chumoli an'anaviy tarzda mehnatkash sifatida ifodalanar edi, Tursunboy Adashboyev esa, maqtanchiq sifatida namoyon etdi, bo'ri obrazi ham noan'anaviy-qo'rqqoqlik, quyon esa-botir tarzda namoyon bo'ldi. Shoir she'rlariga o'rgimchak obrazini olib kirdiki, bu obraz majoziy ma'noda-hiylagar, ayyor, uddabiron tarzda ifodalansa, pashshani esa, har qanday gaplarga ishonib, shu ayyorlar tuzog'iga tushuvchi laqma obrazida namoyon qilgan. Jonzotlar obrazi ifodalangan

ILMIY AXBOROT

asarlarda didaktik mazmun bilan birgalikda, ularning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, yashash tarzi ham ifodalanmoqdaki, yosh kitobxon tarbiya bilan birgalikda ularning olami bilan tanishadi.

Abdurahmon Akbar ham ustoz izidan borib o'ziga xos majoziy obrazlar yaratadi. "Maqtanma dakang" she'rida xo'roz obrazi orqali, maqtanchoqlik illati ko'rsatib berilgan. T.Adashboyevda xo'roz obrazi insonlarga xos bo'lgan maqtanchoqlik bilan, xo'rozning tabiatiga xos urushqoqlik sifati ham namoyon bo'lgan. Maqtanchoqlik yomon odat ekanini nasixatomuz emas, balki jonli badiiy tasvir orqali beriladi, she'rning so'nggida Olaparning nutqi orqali, undan-da barvaqt turuvchi, hatto uxlamaydigan it obrazi qiyofasi ham o'z ifodasini topadi, she'rda ikki obrazni parallel berib, qiyoslash yosh kitobxonga havola qilinadi. "Ziyrak chumoli haqida ertak" she'rida esa, bolasini ilhaq bo'lib kutgan ona chumoli, va yo'lda yotgan ushshoqni uvol qilmaslik uchun ortmoqlab kech qolib kelgan ziyrak chumolicha obrazi berilgan. She'r mazmunida donni, ushshoqni isrof qilmaslik, yerda beetibor qoldirmaslik kabi tarbiyani ilgari surish bilan birga, kechikib onasini xavotirga qo'ygan uchun uzr so'rash holati ham berilganki, bu yosh kitobxonga o'rnak vazifasini bajaradi. Xalq og'zaki adabiyotida chumoli mehnatkash, T.Adashboyevda maqtanchoq sifatida tasvirlansa, A.Akbar mehnatkashligi bilan birga, isrofga yo'l qo'ymaydigan, har bir ushoqni qadrlaydigan, hatto qilmishi uchun uzr so'raydigan vijdonli tarzda ifodalaganki, bu bolajonlarga o'rnak bo'lish bilan birga, shoir poetik mahoratini belgilaydi. "Uzrli kechikish" she'rida chumoli obrazida do'stlik, odat-tartiblarga amal qiluvchi, urf-odat, qadriyatlarini hurmat qiluvchi, qadrluvi obraz sifatida namoyon bo'lgan. Yosh kitobxonda ham shunday vaziyatlarni shakllantirishga asos bo'ladi.

O'rtoqjon bilsang bizda / Bor shunday odat, tartib

Ko'ringan do'stlar bilan / o'tish kerak so'rashib.[1.20]

"G'o'nan va tulki" (masalnamo) she'rida esa, tulki an'anaviy ayyor, g'o'nan esa aqli, hozirjavob obrazida namoyon bo'lgan. Shoir masalnamo deb atashiga sabab, insonlarga xos illat va fazlatlar hayvonlar obraziga ko'chirilgan bo'lib, yakunida tegishli xulosa ham berilgan. So'zning ma'lum qismlari raqamlarda ifodalangan bo'lib, shakliy va mazmuniy jihatdan novatrona uslubni yuzaga keltirgan. Bunay yangicha she'rlar yosh kitobxon diqqatini tortadi va ta'sirdorligini oshiradi.

G'10anlar tulkilarga/ El bo'lmaydi hech qachon.

In qurib ol o'zingga/ H10graguncha ey nodon.

T.Adashboyev hiylagar, ayyor sifatida gavdalandirgan o'rgimchak obrazi, A.Akbarning "O'rgimchak" she'rida diyonatli o'rgimchak sifatida namoyon bo'lgan, shoir o'ziga xos poetik obraz yaratgan. Barchaning ongiga singib ketgan salbiy tasvirdan farqli ravishda, ijobiy obrz sifatida ifodalaganki, yosh kitobxonga har qanday yomonlikni ortida yaxshilik, ezgulik mavjudligi haqida tushuncha bermoqchi bo'lgan va buni uddalay olgan. Abdurahmon Akbarning she'riy mahoratining yuksalishi avvalo har bir so'z, iboralarni "chertib"tanlashida, ularni har bir obraz, mavzu, g'oya va ohangga mos holda qo'llanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning obrazlari xarakter xususiyatlari hayotiy chizgilarga boy, xilma-xil tasvirlarda namoyon bo'ladi.

Dilshod Rajabning ijodidan o'rin olgan majoziy obrazlar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoir an'anaviy obrazlarga murojaat qilish bilan birga, o'ziga xos obrazlar ham yaratdi. Uning "Kapalak" she'rida bir kunlik umri bilan, barchaga go'zallik ulashib, shod yashab bir umrlik o'rnak bo'luvchi kapalak obrazi orqali, yosh kitobxonga birovlariga ozor bermasdan, yaxshilik qilib yashashni o'rgatadi."Tulki"she'rida esa bolalarga xos ko'chirmachi, dangasa tulki obrazi berilgan. Bilamizki, tulki an'anaviy ayyor, yolg'onchi obrazlarida namoyon bo'lgan, Dilshod Rajab esa, bularga qo'shimcha ravishda, bolalarda ko'p kuzatiladigan holatni-ko'chirmachilik, dangasalik illatlarini ham mujassamlab o'ziga xos majoziy obraz yaratadi.

Chatoq do'sting ahvoli, / Yecholmadim misolni.

Do'stim, bir yaxshilik qil / Daftaringni berib tur.[2.34]

Ishi tushsa, hatto o'zidan do'st yasab, ayyorlik bilan maqsadiga erishmoqchi bo'lgan tulki obrazida insonlarga xos salbiy illatlar majoziy ma'noda, yumoristik kulgi asosida berilgan. Xalq og'zaki ijodida tulki-ayyor sifatida berilgan. Dilshod Rajab ham ushbu an'anani davom ettiran holda, ayyor tulki obrazini bolalarga, mos holda ko'chirmachi o'quvchi sifatida namoyon qilgan. "Jirafa"she'rida ham Jirafa majoziy obrazi orqali bilmasvay, ko'chirmachi bolalarning holati yumoristik kulgi asosida ochib berilgan.

Yaxshiyam bo'yni uzun, / Unga as qotar juda.

Ayniqsa dars mahali-/Misol yechish vaqtida.

Chunki u eng ortdagi / Bir partada o'tirar.

Bo'ynini cho'zib asta /Chumolidan ko'chirar.

O'zining bo'yi uzun bo'lsada misol ishlashni, hisobni bilmaydi, o'zidan bir necha barobar kichikinagina chumolidan misollar javobini ko'chirishi kitobxonda yengil kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she'rning poetik mazmunini ostida kinoya borki, bu kitobxonga yaqqol tashlanmaydi, ya'ni a'lochilik, yaxshi o'zlashtirish, bilish bu bo'y bilan o'lchanmaydigan holat, chumoli qancha kichik bo'lsa-da, u bilimli, aqlli etib tasvirlanishi, go'yo xalq orasidagi "Aql yoshdamas-boshda" maqolining mazmuniga hamohangligi sezilib turadi. Ushbu she'rda aql bo'yning baland-pastligida emas, boshda ekanlik mazmuni anglashiladi. Jirafaning bo'yni uzunligi, ko'chirmachilik uchun qulayligi asosida yuzaga kelgan yumoristik holat, T.Ajashboyevning "Jirafaning ko'ylagi" she'rida ham mavjud bo'lib, bunda jirafaning shoshqaloqligi, o'ylamay ish tutishi kulgi ostiga olingan. Ya'ni jirafa zebra va yo'lbarsga xavas qilib kenguru chevarga ko'ylak tiktiradi, bir metr qolganda chidamaganligi sababli bo'yniga yetmay qoladi. Ushbu holat yumoristik kulgiga sabab bo'ladi. Shoir hayotiy holatni bolalar tafakkuriga mos tarzda poetiklashtiradi. Dilshod Rajab ham ustoziga xos an'anani davom ettirib, novatorona tashbeh va jonlantirishdan foydalanib, o'ziga xos o'quvchi Jirafa obrazini yaratgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar she'riyatida majoziy obrazlar ifodasi polefunksionallikni yuzaga keltiradi, ya'ni yosh kitobxonga tarbiyaviy-didaktik, badiiy-estetik, ta'sir ko'rsatadi, ularni hayvonot va nabotot olamining xususiyatlari bilan tanishtiradi. Shu bilan birga narsa-buyum, predmetlar obrazi ham keng o'rin egallaganligi bilan ahamiyatga ega. Majoziy obrazlarda insonlarning, bolalarning harakter-xususiyatlari yumoristik kulgi asosida ifodalaniib, ularga o'rnak qilib ko'rsatiladi. Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajablar ijodida narsa va buyumlarning obrazini jonli, o'xshatish qiyoslash orqali bolalarga xos va mos tarzda ifodalash yaqqol ko'zga tashlanadi. Bola psixologiyasini yaxshi anglagan bu ijodkorlar predmetlarni ularning tafakkuri va tasavvuriga mos tarzda jonli kartina asosida obrazini yaratdiki, bu bola tasavvurida yaqqol gavdalandi. Abdurahmon Akbarning narsa-buyumlar obrazi asosida yaratgan she'rlari ham bolajonlar qalbidan birdek o'rin oladi. "Varrak qo'shig'i" nomli she'rda varrakning jonlangan obrazi namoyon bo'lgan. She'r intoq badiiy san'ati asosiga qurilgan bo'lib, bolalar tasavvurida jonli kartinani yuzaga kelishini ta'minlagan. "Intoq"-(arabcha so'zlatish va nutq bilan ta'minlash) jonsiz narsalarni insonga o'xshatib gapirtirishga asoslangan janr. Yosh kitobxon uchun har-bir narsa jonli, ular gapiradi, do'st bo'ladi, xursand bo'ladi, hafa bo'ladi... Shu bois bolalar ijodkorlari bu she'riy san'atga ko'p bora murojaat qiladilar.

Qanotsiz ham ucha olaman, / Osmonlarni qucha olaman.

Varrak emas, / Men yosh do'stimning

Yuragiman-asov bolaman.[3.29]

She'r varrakning o'z nutqi orqali berilganligi bola uchun ishonarlilikni, qiziqarlilikni ta'minlagan. O'zini yosh bolaga do'st tutishi, qadrdon bilishi yosh kitobxonda do'stlik tuyg'usini shakllantirib, jonli, hatto jonsiz narsalar bilan ham do'st tutinishni o'rgatadi,

Salom, Quyosh, / Salom, Ona-Yer,

Salom, Navro'z, / Salom, Navbahor.

Varrak shamol yordamida ko'kka uchganidan undan minnatdor bo'ladi, xursandligidan "Salom" aytib, Quyoshga, Ona-Yerga, Navro'z va Navbahorga peshvoz chiqadi. Varrakning ko'tarinki kayfiyati, xursandchiligi anafora badiiy san'ati yordamida ifoda etilgan va yosh kitobxon uchun badiiy-estetik ta'sirdorligini oshirgan. "Radioning magnitafonga degani" she'ri sevimli bolalar shoiri Anvar Obidjon yo'lida yozilgan bo'lib, narsa-buyum-predmetlarni jonlantirish orqali yosh kitobxonga o'rnak bo'larli saboq bergan. She'r ikki banddan iborat bo'lib, birinchi bandda radio nutqi orqali magintafonning xususiyatlari keltirilgan bo'lsa, ikkinchi bandda uning magnitafonga nasihati berilgan.

Na so'zlaysan yozilib, / Na xabar yetkazasan.

Qo'shiq aytib odamlar / Charchog'in ketkazasan.

Lekin, uka shuni ham / Xotiringda tutgin yod,

Faqat kuy va qo'shiqdan / Iborat emas hayot!

ILMIY AXBOROT

Magnitafonning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni birlashtirib, jonlantirish san'atini yuzaga keltirgan. Ikkinchi bandida magnitafon obrazi orqali bolakaylarga hayot faqat o'yin-kulgidan iborat emasligini majoziy ma'noda uqtirmoqchi bo'lgan. Bu she'rning didaktik xususiyatini belgilaydi. She'rda ifodalamoqchi bo'lgan mazmun jonsiz obraz orqali berilgan va predmet nutqiga ko'chgan, ijodkorning fikrlari radioning nutqi orqali berilganligi intoq san'atini namoyon qilgan. Radio faqat gapiribgina qolmasdan, insonlarga xos fikrlash qobiliyatiga ega sifatida ham namoyon bo'ladi. She'r yosh kitobxon uchun tarbiyaviy ahamiyatga molik va hayot haqidagi tushunchasini orttiradi. Shoirning o'ziga xos tomoni yana shunda ko'rinadiki, banddagi misralarda biror marotaba bo'lsa-da sarlavhadagi so'zlar (radio, magnitafon)ni keltirmaydi, balki ularga xos xususiyatlar bilan ifodalaydi, ziyrak bolajon shu xususiyatlar orqali nima haqida so'z borayotganligini idrok qilishi mumkin.

Dilshod Rajab ham narsa-buyum predmetlarning o'ziga xos obrazini yaratganligi bilan e'tiborga molik. Uning "Pufak" she'rida pufak misolida sal maqtovga hovliqib ketadigan, maqtanchoqlar qiyofasi namoyon bo'lgan. She'r hajmi kichik bo'lsa ham mazmuni keng, yosh kitobxonga o'rnatilgan bo'larlidi.

Sal maqtovga / Uchaverar

Puf desang bas / Shishaverar.[4.49]

Pufakning real holati, majoziy ma'noda insonlarga xos salbiy illatlarni ochib berishga xizmat qilgan. "Supurgining o'tinchi" she'rida esa, tozalikni o'ziga odat qilib olgan, betartib bolalarni tatibga chaqiruvchi supurgi obrazini jonlantirib, intoq badiiy san'ati orqali reallikdagi holatini poetiklashtirgan holda yumoristik kulgi asosida tasvirlagan.

Iflos qilmang hovlini, / Hoy, betartib bolalar.

Ko'rki buzilsa uning, / Qarab turmas opalar.

Sizni koyishar, menchi, / Ho'p ko'raman kunimni;

Ishlatishar voh, rosa / Yerga ishqab burnimni.[5.49]

Supurgining o'tinch-xitobi bolalarga tarbiyaviy jihatdan ahamiyatli. She'r yakunidagi "Yerga ishqab burnimni" iborasi badiiy-estetik ta'sirdorlikni oshirgan, yosh kitobxonda ham kulgi, ham achinishni yuzaga keltiradi. Ushbu jonli tasvir quruq pand-nasihatdan ko'ra, kitobxonda atrof-muhitga yaxshi munosabatda bo'lish, narsa-hodisalar mohiyatini chuqirroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga "Tanburning skripkaga degani", "Oshqovoqning shikoyati", "Botinkaning shikoyati" kabi she'rlari Avar Obidjon uslubiga xos tarzda yaratilgan bo'lib, novatorona jonlantirish asosida bolalarga xos ba'zi xolatlar yumoristik kulgi asosida majoziy ma'no orqali ifoda etilgan va shoir she'rining o'ziga xosligini ta'minlagan. "Ketmonning shikoyati" she'rida esa, mehnatkash, tinim bilmas ketmon, unga hech dam bermasdan, hatto yakshanba kuni ham ishlatib, mehnat intizomini buzayotgan dehqondan shikoyat qiladi. She'r mazmuni yosh kitobxonda har bir narsaning joni borday taassurot qoldiradi. Ketmonning "achinarli" holati she'r so'nggida yengil kulgi uyg'otadi.

Chora ko'rmaydi hech kim / Kelib dala maydonga,

Mehnat intizomini / Buzayotgan dehqonga. [6.92]

She'r mazmunida ma'lum ma'noda ijtimoiylik mavjud bo'lib, insoniyat olamiga xos holatlar tag ma'noda berilgan. "Mixning shikoyati" she'rida ham ijtimoiy masala majoziy ma'noda ifodalangan. Ushbu she'r Istiqoldan oldin yaratilganiga e'tibor qaratsak, mazmun yanada oydinlashadi. "Qoziqvoyning maslahati" she'rida esa, Qoziq nutqi orqali, shoirning bolalarga bergan maslahtini ko'ramiz. Har bir misra ko'chma ma'noda ifodalangan bo'lib, majoziylik kasb etadi. Bolalarni o'qishga, bilim olishga chorlashi bilan ahamiyatlidir.

Charxla tinmay kallani, / Bo'lma to'mtoq, do'stginam.

Boshing o'tkir bo'lmasa / To'qmoq yeysan, do'stginam.[7.75]

Lirik qahramon bolalarni o'ziga do'st deb biladi. Chunki do'st har doim "achchiq" gapirsa-da to'g'ri maslahat beradi. Toq misralar ko'chma ma'noda bo'lib, "Charxla tinmay kallani" iborasi o'qi, izlan ma'nosiga, "Boshing o'tkir bo'lmasa" esa, aqling, biliming yetarli bo'lmasa mazmuniga mos kelib, ma'rifiy-tarbiyaviy vazifani bajaradi, polefunktionallik kasb etadi. Bu shoirga xos mahorat sanaladi. R.Barakayev bolalarga bag'ishlangan asarlarni mazmunni yoritishdagi tasvir uslubini: "Ijodkor katta hayot tajribasiga ega bo'lgan yoshi ulug' kishi sifatida o'z qarashlarini yosh bolaning tasavvur va qarashlari bilan uyg'unlashtirib ifodalasa, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan

hikoyalash uslubi ustuvor" [8.118], deya ikki toifaga ajratadi. Olim mazmun va tasvir uslubi asosida guruhlab o'tsa, biz kuzatish va tahlillarimiz asosida lirik qahramon va obrazlarni muallif ifodasiga ko'ra quyidagicha guruhlashimiz mumkin.

1. Lirik qahramon sifatida shoirning o'z "men"ini ifodasi
2. Shoir tomonidan roli uynalayotgan bola "men"ining aks etishi-bola obrazi.
3. Bolalarning tabiatiga mos holda yaratilgan majoziylik kasb etgan parrandalar, hayvonot-nabotot olami obrazlari
4. Jonsiz narsa-buyumlar, predmetlar obrazi ifodasi kabilarga ajratish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyotining badiiy-estetik yuksakligiga e'tibor qaratish bilan birga, ma'rifiy-tarbiyaviy mohiyat ham esdan chiqmasligi lozim. Chunki, bu adabiyot dastavval yosh avlodning ma'naviy kamolotiga mas'uldir. Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar uchun o'ziga xos asarlar yaratishda barcha narsalar-parrandalar, hayvonot nabotot, bani Odam, insoniy munosabatlar o'z ifodasini topmog'i zarur. Bunday asarlar yosh kitobxonga Olam va Odamning mazmun-mohiyatini teran anglashda yordam beradi. Bolalar adabiyotida ushbu munosabatlar lirik qahramon "men"i va obrazlar vositasida namoyon bo'ladiki, bu obrazlar galereyasida umumadabiyotdagi kabi o'tkir konfliktlar bilan bog'liq tarzda, jangavorona xarakterdaga ega bo'lgan salbiy qahramonlar uchramaydi, ulardan keskin farq qilib, bola tafakkuriga, yoshiga mos ertaknamo, hajviy, majoziy obrazlar o'z ifodasini topadi. Har bir ijodkor ustozlar an'anasiga tayanib o'ziga xos poetik obraz orqali badiiy niyatini tasvirlaydi, mazmunini yoritadi.

Adabiyot taraqqiyotining har bir davrida ijodkor o'zidan oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni choqda, yangilik qo'shishga intiladi. Shu tariqa adabiyotning uzluksiz taraqqiyoti ta'minlanadi. Adabiyotdagi vorisiylik, an'analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qolmasligini kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмон Акбар. Ўйинқароқ булутча. –Тошкент: Чўлпон. 1996, – 206
2. Ражабов Д. Поезднинг боласи.-Тошкент:Муҳаррир.2013, – 346
3. Абдурахмон Акбар. Уйқучининг тушлари.-Тошкент:Шарқ.2006, – 296.
4. Ражабов Д. Бахши бола-яхши бола.-Тошкент:Ўқитувчи.2016, – 496
5. Ражабов Д. Бахши бола-яхши бола.-Тошкент:Ўқитувчи.2016, – 496
6. Ражабов Д. Бахши бола-яхши бола.-Тошкент:Ўқитувчи.2016, – 926
7. Ражабов Д. Бахши бола-яхши бола.-Тошкент:Ўқитувчи.2016, – 756
8. Баракаев Р. Бугунги ўзбек болалар шеърияти ва Абдурахмон Акбар ижоди. // Шарқ юлдузи. 2013.6-сон. –1186.